



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ

Ў

Илимий-методикалық журнал

№ 3/1 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

3/1-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гуәалық берілген.*

Нөкис

3/1-сан 2024

март

Шөлкемлестіріушілер:

Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириуь Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Улфат МАҲКАМОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Сафо МАТЧОН
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Шуқурилло МАРДОНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Раъно ОРИПОВА
Интизар АБДИРИМОВА	Бахтиёр РАХИМОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Фурқат РАЖАБОВ
Марифжон АХМЕДОВ	Светлана СМЕРНОВА (Москва, Россия)
Умида БАҲАДИРОВА	Дилшода САПАРБАЕВА
Фархад БАБАШЕВ	Феруза САПАЕВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Зайниддин САНАҚУЛОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Қаххор ТУРСУНОВ
Шахло БОТИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Нурузода ТОШЕВА
Асқар ДЖУМАШЕВ	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Тажибай УТЕБАЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Гулнара ЖУМАШЕВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Шохида ИСТАМОВА	Вохид КАРАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Лола ИСРОИЛОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Сабит НУРЖАНОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
	Гулрухсор ЭРГАШЕВА
	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ АДЕБИЯТ

Тилеумуратова Г.Т. Қорақалпоқ адабиётини ўқитишда халқ оғзаки ижодидадан фойдаланиш усуллари	9
Aytbayev D.T. Ergash gapli qo'shma gaplarda diktum va modusning ifodalanishi	13
Mamarizayeva F.Z. Tarjimada badiiy asar uslubini saqlashning turli strategiyalari va bu jarayonning o'ziga xosligi (S.Ahmadning "Jimjitlik" asari misolida)	17
Qurbonova D.A. Neyrolingvistikaning fan sifatidagi ahamiyati	22
Odiljonova K.A. Leksikologiya hamda uni o'qitishga doir o'quv materiallari mazmuni hamda o'quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish hamda so'zdan foydalana olishning mavjud ahvoli	27
Sultonkulov O.J. Zamonaviy tilshunoslikda "Vaqt" konseptini pragmatik jihatdan o'rganish masalalari	34
Еркибаева Г.Г., Турсиналиева Г.Б., Абдикаримов А. Фразеологические словари и фразеологическая компетенция	39
Otabayev M. N. The role of games in teaching English	45
Majidova G. Strategies for developing students' critical thinking skills in teaching foreign languages	49

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Turumbetova A. Oqiw sabaqlaridan tisqari dogerek jumislarin otkeriw metodikasi	54
Temirbekova A.O., Saribaeva B. Jahn talim sistemasinda - talim	63
Тулишов Ф. Талабаларда креативлики баҳолашнинг ўзига хос хусусиятлари	67
Ismadiyarova U.A. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya mexanizmlarini etnopsixologik qadriyatlar asosida takomillashtirish	73
Юсупов С. С. Таълим-тарбия тизимини бошқарувида раҳбарлик ва ташкилотчилик фаолиятининг педагогик асослари	80
Абдурахимов К.А. Тафаккур жараёнига айтиб туришларнинг таъсири ва роли	89
Рўзиматов Э.Й., Рўзиматов Э.Э. Замонавий ўқитувчи-кегажак бунёдкори	99
Turdiqulova N.T. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanishning samaradorligi	103
Хамрокулова Ш.Э. Даволаш педагогикасининг фан сифатида ривожланиши	113
Содиқов У., Жўраев А. Масалаларни ечишда ўқувчиларда математик моделлаштириш кўникмаларини шакллантириш	120
Абдуллаева Г.А. Маънавий тарбияни миқдорий хусусиятлари	125
Хайдарова Х.Р. Ёшлардаги ахборот-виртуал саводхонликини ривожлантиришда рақамли медианинг роли	130
Хамрокулова Ш.Э. Экологик тарбия механизмларини такомиллаштиришнинг методологик асослари	135
Худайназаров Т.А. Талабалар ўқув фаолияти самарадорлигини таъминлашда рағбат ва жазо феноменларининг роли	141
Ахрарова З.Б. Маънавий - ахлоқий тарбия жараёнларида Маҳмудхўжа Бехбудийнинг ижтимоий – педагогик меросидан фойдаланиш	148
Jumabaev A.D. Axloqiy ta'limda qo'llaniladigan usullar va texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari	154
Xushbaqov D. Q., Sodiqov U. J. Talabalarda mental dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	163
Sultansaidova M.A. Xorijiy tajribalar asosida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish	170
Абдурахимова Д.А. Интегратив ёндашув асосида бўлажак офицерларнинг ахлоқий-руҳий, жанговар компетентлигини ривожлантиришда маънавий маданиятнинг роли	175
Mirzayev Sh.T. Harbiy ta'lim fakultetlari talabalarining innovatsion fikrlashlarini rivojlantirish omillari	182



Joldasbayev P.M. Sport meditsinasini dene tárbiyasi menen baylanisiligi hám rawajlaniv dawirleri.....	609
Kadirimbetov R.N. Qaraqalpaqsan Respublikasında qılıshpazlıq sportın rawajlandırıw arqalı salamat áwladtı tárbiyalawdı ilimiy-pedagogikalıq tiykarları.....	617
Xudayorov D.D. Mahalliy va milliy an'anamiz – kurash.....	622
Jarilkapov U.B. Malakali erkin kurashchilarni og'ir atletika mashqlari orqali kuch sifatini takomillashtirish metodikasi.....	626
Норқобилов М.Н., Ўринбоев Э.А. Таянч ҳаракат аппарати шикастланган талабаларнинг ҳаракат фаоллигини такомиллаштириш услубияти.....	633
Jarilkapov U.B. Malakali erkin kurashchilarning kuch tayyorgarligida anketa savollari orqali og'ir atletika mashqlarining o'rni va ta'sirining tahlili.....	643
Yusupova R.J. Jismoniy mashqlarga tana a'zolarini ko'niktirish.....	648
Ўйлашов М.Р. Жисмоний тарбия ва спорт воситаларидан фойдаланган ҳолда мактаб ўқувчиларини соғломлаштириш асослари.....	651
Шаджалилов Ш.И. Футбол ҳакамликларини ўйин фаолиятини бошқара олмаслик оқибатларини бартараф этиш.....	656
Qayumov Sh.A. Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari.....	661
Niyazov A.T., Rajabova M.M. Paralimpiya sport musobaqalari natijalari asosida sport ta'limini rivojlantirish.....	665
Baxromov O. Sportchilar shaxsiy xususiyatlarini shakllanishida motivatsiyaning ta'siri.....	670
Baxromov O. Futbolchilarining maydondagi texnik va taktik harakatlari.....	676
Niyazov A.T., Rajabova M.M. Sportning o'yin turlarida taktik harakatlarni bajarishda tezlikni rivojlantirish uslubiyati.....	680
Қалжанов П.У., Мирзамбетов П.Ш. Ёш спортчиларни жисмоний сифатларни тарбиялаш ва ҳаракат коникмаларини такомиллаштириш асослари.....	685
Soatov E.M. Oliy ta'lim muassasalarida kurash bo'yicha o'qituvchilar va murabbiylar faoliyatiga qo'yiladigan talablar.....	689
Sultonov Sh. U. Jismoniy madaniyat sohasida talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish mezonlari.....	695
Tleuv B.A. Yuqori malakali gandbolchilarning chaqqonlik sifatlarini rivojlanish darajasini o'rganish.....	699
Shamsiyev R.M. Zamonaviy yondashuvlar asosida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish.....	707
Ilyosboyev S. B. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etish yo'llari.....	710
Тлеуов Б. А. Гандболчи-талабаларда махсус жисмоний тайёргарлик кўрсаткичларининг тажриба давомида ўзгариш динамикаси.....	714
Joldasbayev P.M., Qutlimurodova O.P. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarini shakllantirishda harakatli o'yinlardan foydalanish.....	720
Abdullayev A. A. Tabaqalashtirish asosida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish mexanizmlari.....	724
Usmanova Sh mustaqil ta'lim ishlarining jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonidagi o'rni.....	729
Eshmatov G'E. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishda tibbiy pedagogik nazoratning o'rni va ahamiyati.....	734
Jabborov A.T. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining inson xususiyatlarini shakllanishiga ta'siri.....	737
Raxmonova G.U. Jismoniy ta'lim jarayonini milliy an'analar vositasida tashkil etishning metodik ta'limoti.....	743



MUSTAQIL TA'LIM ISHLARINING JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINI TAYYORLASH JARAYONIDAGI O'RNI.

*Usmanova Shaxnoza
Taxirovna*

*Katta o'qituvchi
CHDPU Bolalar sporti kafedrası*

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, referat, mustaqil ish, talaba, pedagogik jarayon, ilmiy ish, o'quv mashg'ulot, ma'ruza, ta'lim.

Ключевые слова: физическое воспитание, реферат, самостоятельная работа, студент, педагогический процесс, научная работа, обучение, лекция, обучение.

Key words: physical education, abstract, independent work, student, pedagogical process, scientific work, teaching, lecture, teaching.

Bugungi kunda nafaqat jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi balkiboshqa ta'lim yo'nalishlarida ham talabalar tomonidan olib boriladigan qator (referat, mustaqil ish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi hamda pedagogik amaliyot) ishlarni amalga oshirishda talabalik faoliyatida muammolarga duch kelmoqdalar. Buning asosiy sababi talabalar tomonidan bajariladigan ishlarni amalga oshirish mexanizmini tushunmaganliklari bois qanday tartibda rasmiylashtirish borasida yetarlicha bilimga ega emasliklaridadir. Shuningdek, talabalar tomonidan mustaqil bajariladigan referat, mustaqil ish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari avvalo, biron fan tarkibida alohida mavzusifatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, har qanday insondan o'zi bilmagan va anglab yetmagan bilim yoki tajribani so'rashni mantiqsizlik bilan tenglashtirish mumkin. Shu bois mazkur jarayonni amalga oshirishda, talabalar bilimini takomillashtirishda har bir fan mazmunidan kelib chiqib, referat, mustaqil ish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari qay tartibda rasmiylashtirish va bajarish jarayonida nimalarga e'tibor berish lozimligini izohlash lozim.

Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining ma'lum sabablarga ko'ra, ushbu yo'nalish o'quv rejasida belgilangan fanlardan qoldirilgan o'quv



mashg'ulotlarini o'zlashtirish yuzasidan yoziladigan dastlabki (kichik) izlanish turi hisoblanadi[2].

Referat tayyorlashda talaba o'z fikrlarini yozma bayon qilish jarayonida ko'rib chiqilayotgan muammoni nazariy jihatdan anglash, ijtimoiy hayot, voqea va hodisalar tahlilida o'z bilimlarini ishlata olish, mavzuni idrok etishda mustaqil tushunchaga ega bo'lish, manba va adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasini egallash, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi bo'yicha o'rganilayotgan fanning aniqbir muammosini o'rganib chiqib, uni bexato bayon qilishga o'z e'tiborini qaratishi kerak. Talaba xulosa, umumlashtirish, tavsianomalarni bayon qilabilishi, shuningdek, ilmiy-ma'lumot qismini to'g'ri yoritish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Referat mavzusini tanlash ishning juda mas'uliyatli bosqichidir. Talabaga kafedra tomonidan tavsiya etilgan o'rganilayotgan fanga aloqador boshqa mavzularni mustaqil tanlash huquqi beriladi. Bu holda referat mavzusi ma'ruzachi yoki seminar olib boruvchi o'qituvchi bilan kelishilishi kerak. Bu talabaga referat rejasini, asosiy maqsadini va adabiyotni to'g'ri tanlashga yordam beradi.

Mavzu tanlashda uning dolzarbligi, muammoning ilmiy ishlab chiqilish darajasi, talabaning bilimi va qiziqishlari, o'qish jarayonida vujudga kelgan shaxsiy moyilligi bosh omil hisoblanadi.

Puxta ishlab chiqilgan referat rejasi, uning muvaffaqiyatli yozilishining kafolatidir. Talaba referat mavzusini tanlayotganda tadqiqot negizini tashkil qilgan muhim vazifalarni o'ylab ko'radi va ilmiy rahbar bilan maslahatlashadi. Manbalarni chuqur o'rganish jarayonida oldindan asosiy konsepsiya va referat rejasi ishlab chiqiladi. Referatning konsepsiyasi talaba tanlagan muammoni, uni dolzarbligi, o'rganish uslubiyati va yechish yo'llarini naqadar chuqur anglaganligini ko'rsatadi.

Referatning rejasida uning ichki tuzilishi va mundariyasi aniqlanadi. U sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Reja tarkibiga 3-4savol tuzish tavsiya etiladi. Referat kirish va xulos aqismlariga ega bo'lishi shart. Reja bilan ishlaganda asosiy e'tiborni mavzu mohiyatini ochib berishda muhim hisoblangan masalalarga qaratish kerak. Munozara talab savollardan qochmaslik kerak. Tadqiqotning bu bosqichida talabaga ilmiy rahbarning maslahatlari katta yordam ko'rsatadi.

Referatning rasmiylashtirish tartibi – bu titul varaqasi bilan boshlanadi. So'ng rahar bir bo'limni o'zichiga olgan betlari ko'rsatilgan mundarija keladi. Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishidagi u yoki bu fanning mavzusi bo'yicha yozilgan referatning hajmikompyuterda 14 shirft, 1,5 interval oralig'ida, 10-



15 varaqdan oshmasligi zarur. Referatning asosiy qismi mavzu mundarijasi va metodologik yo‘nalishi hisobga olingan holda o‘lchanadi. Iqtibos qaysi manbadan keltirilganligi sahifa ostida yoki referatning so‘ngi betida beriladi.

Talabalar tomonidan referat yozish tartibi o‘zlashtirilgandan so‘ng, uni kichik ilmiy izlanish sifatida e‘tirof etish mumkin. Bu esa keyingi o‘quv jarayonlarida tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlaridan tayyorlanadigan mustaqil ishlarni bajarishda fundament vazifasini o‘taydi[2].

Jismoniy madaniyat ta‘lim yo‘nalishi talabalarining o‘qitilayotgan fan bo‘yicha mustaqilishi tayyorlash bugungi kunda dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ish guruhda ishlash bilan bir qatorda o‘quv jarayonining shakllaridan biri bo‘lib, uning ajralmas qismidir. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchilar tomonidan rejalashtirish va nazorat qilish, shuningdek jismoniy madaniyat mutaxassisligi o‘quv rejasida mustaqil ish hajmini o‘quv bo‘limlari va o‘quv muassasasining metodistlari tomonidan rejalashtirish zarur. Mustaqil ish talabalarning rejalashtirilgan ishi bo‘lib, u o‘qituvchining ko‘rsatmasi va uslubiy rahbarligida, lekin uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladi.[1].

Mustaqil ta‘lim nafaqat har bir fanni o‘zlashtirish uchun balki, umuman olganda, o‘quv, ilmiy, kasbiy faoliyatda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, masuliyatni o‘z zimmasiga olish, muammoni mustaqil hal qilish, kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan ayrim masalalarga echim topish kabi bir qator ta‘limiy va tarbiyaviy jarayonlarni qamrab oladi. Shuningdek, bo‘ljak mutaxassis ijodiy va ilmiy-tadqiqot fundamental bilim, professional mahorat va tajribaga ega bo‘lishi, yangi muammolarni hal qilish, ijtimoiy faoliyatini (o‘z shaxsiyatini) baholash kabi shaxsiy xususiyatlar shakllanib boradi. Ta‘limning tarkibiy qismi talabalarning mustaqil ishi jarayonida aniqshakllanadi. Chunki, talabalar mavzu tarkibida ko‘rsatilgan bir reja asosida ish olib boradilar bu esa, mazkur fanning takomillashishiga olib keladi. Mustaqil ishlarni bajarishda o‘qituvchi faqat talabalarning bilim faoliyatini tashkil qiladi. Talaba o‘zi bilishni amalga oshiradi. Mustaqilish barcha turdagi o‘quv ishlarining vazifalarini bajaradi. Mustaqil faoliyat bilan ta‘minlanmagan har qanday bilim insonning haqiqiy mulki bo‘lishi mumkin emas.

Uning shakllari xilma-xil bo‘lib, bu har xil turdagi uy vazifalari hisoblanib, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlaridan kelib chiqib, ishchi dasturda ilova qilgan holda semestr uchun mustaqil ish mavzulari keltiriladi. Mustaqil ish mavzulari jadval asosida keltirilib, uning ketma-ketlik tartibga solinadi va har bir mutaqlil ta‘lim uchun uning murakkablik darajasidan kelib chiqib, unga ajratilgan aostlar aniq ko‘rsatib o‘tiladi. Mustaqil ish o‘qituvchilar tomonidan muntazam



ravishda nazorat qilinishi kerak. Vazifalarni belgilashda talabalarga mustaqil ishni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, metodik ko'rsatmalar, qo'llanmalar, kerakli adabiyotlar ro'yxatini tuzish va foydalanish yuzasidan maslahatlar beriladi.

Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida keltirilgan fanlar bo'icha mustaqil ishlar mavjud bo'lib, u ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya ishlari jarayonida amalga oshiriladi.

Mustaqil ishni bajarishda talabalar juft bo'lsa yoki unda 3 kishi ishtirok etsa, samaraliroq bo'ladi. Guruhda ishlash o'zaro motivatsiya va o'zaroi intellektual faollik omilini kuchaytiradi, o'zaronazorat tufayli talabalarning bilim faoliyati samaradorligini oshiradi. Mustaqil ish talabalarning bajargan ishlarining kamchiliklarini to'g'irlash va uning sifatini oshirishga qaratilgan qo'llab-quvvatlanadigan didaktik materiallar yordamida amalga oshiriladi.

Mustaqilishni ijroetishshartlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Mustaqil ish uchun topshiriqlar tizimi.
2. Ma'ruzalar mavzulari.
3. Laboratoriya ishi, o'quv mashqlari, uy vazifasi bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.
4. Kerakli va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati.
5. O'quv topshirig'ining motivi(nima uchun, nima yordam beradi).
6. Mustaqil ish mavzusi vazifalarini aniq bayon qilish.

Mutaqil ishni bajarishda talabalar tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

Guruhli mustaqil ish – bu bevosita o'quv mashg'ulotida (ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya) amalga oshiriladigan jarayon hisoblanib, asosan hozirgi zamonaviy sharoitda pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etiladi. Unda o'rganilayotgan mavzuning mazmunidan (rejasi) kelib chiqib, talabalarni guruhlariga ajratib, kelgusi kasbiy faoliyatda ushbu o'rganilayotgan mavzudan qay tartibda foydalanish bo'yicha masala o'rtaga tashlanadi. Bunda talabalar guruh bo'lib turli fikrlar asosida masalani mohiyatini topadilar. Bu turdagi mustaqil ish ta'lim amaliyotida yuqori natija beradi. Chunki, guruhda yuqori va past tafakkur yuritadigan talabalar mavjud bo'lib, aniq kelingan yagona fikr barcha talabalar ongida bir xilda shakllanadi. Natijada, past tafakkur yurituvchi talabalar ham bosqichma-bosqich yuqori tafakkur yuritishga moslashib boradilar.

Mustaqil ish – bu jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi fan uchun ajratilgan soatlar asosida hamda fan dasturida keltirilgan mavzulardan kelib chiqib, talabalar tomonidan mustaqil o'quv mashg'ulotlaridan tashqari



vaqtda bajariladigan ish turi hisoblanadi. Uning maqsadi – talabalarning o‘rganilayotgan fan bo‘yicha bilimlarini takomillashtirish hamda fan bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni o‘rganishdan iborat. Uning vazifalariga – kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni mustaqil xal etish, fanni chuqur o‘zlashtirish, adabiyotlar, axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan mustaqil ishlash qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, uni rasmiylashtirishga quyidagi talablar qo‘yiladi:

titul, mundarija (kirish, mavzu xususiyatidan kelib chiqib 4-6 reja, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati);

kirish – mavzu bo‘yicha uning o‘rganish sabablarini yoritish;

reja asosida aniq faktlarga tayangan holda mavzu mazmunini yoritish;

har bir reja mazmunan mavzuga mos kelishi;

bayon etilgan matnning asosli va haqqoniyligi ta‘minlash;

xulosa har bir reja bo‘yicha asosli bo‘lishini ta‘minlash;

foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini alifbo bo‘yicha ketma-ketlikda, shuningdek har bir adabiyotni kiritishda imloviy xatolarga yo‘l qo‘ymaslik.

Mutaqil ishning xajmi 20-25 betni tashkil qilishi kerak.

Yuqorida keltirilgan, ya‘ni referat va mustaqil ishni tayyorlashda jismoniy madaniyat ta‘lim yo‘nalishi professor-o‘qituvchilarining nazoratida belgilangan tartibda amalga oshirilsa, talabalarni keyingi bosqich, ya‘ni kurs loyihasini tayyorlash bo‘yicha muammolar yuzaga kelmasligi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ураков Ш.Р.Олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашнинг компетент ёндашувга асосланган педагогик тизимини такомиллаштириш. Автореф.п.ф.ф.д. Самарканд-2018 й. 15 б.
2. Ямалетдинова Г. А.Педагогика физической культуры и спорта. Екатеринбург-2014 г. С – 28.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashda mustaqil ilmiy ishlarini tashkil etishga bag‘ishlangan bo‘lib unda dastlabki, referat hamda mustaqil ish tayyorlash tartibi va unga qo‘yiladigan talablar borasida fikrlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящена организации самостоятельной научно-исследовательской работы при подготовке будущих учителей физической культуры к профессиональной деятельности, в ней представлена информация о порядке подготовки исходной, реферативной и самостоятельной работы и требованиях к ней.

SUMMARY

The article is devoted to the organization of independent research work in the preparation of future physical culture teachers for professional activity, it provides information on the procedure for preparing the initial, abstract and independent work and the requirements for it.